

VALYUTA KURSINING BARQARORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI ICHKI VA TASHQI IQTISODIY OMILLAR

Tursunov Rafiqali Burgutovich

ADTI, katta o'qituvchisi

O'rmonov Shoxruh Nabijon o'g'li

ADTI talabasi

Annotatsiya: *Maqolada valyuta kursining barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. So'mning almashinuv kursi bo'yicha qiyosiy tahlil hamda kurs o'zgarishlarining iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *valyuta kursi, barqarorlik, ichki omillar, tashqi omillar, so'm, inflyatsiya, eksport, import.*

Аннотация: *В статье анализируются внутренние и внешние экономические факторы, влияющие на стабильность валютного курса. Приведен сравнительный анализ обменного курса сума и его влияние на экономические секторы.*

Ключевые слова: *валютный курс, стабильность, внутренние факторы, внешние факторы, сум, инфляция, экспорт, импорт.*

Abstract: *The article analyzes internal and external economic factors affecting the stability of the exchange rate. It presents a comparative analysis of the Uzbek soum's exchange rate and its impact on economic sectors.*

Keywords: *exchange rate, stability, internal factors, external factors, soum, inflation, export, import.*

Valyuta kursi mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi va o'zgaruvchanligi ko'plab omillar bilan belgilanadi. Mazkur omillar shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratiladi. Ichki omillarga makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, davlat byudjeti taqchilligi, valyuta zaxiralari hajmi, pul-kredit siyosati va iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati kiradi. Tashqi omillar esa global bozor kon'yunkturasi, asosiy savdo hamkorlarining iqtisodiy holati, xalqaro energiya narxlari, geosiyosiy vaziyat,

tashqi qarz darajasi hamda eksport-import muvozanati bilan bog'liqdir (Krugman & Obstfeld, 2009).

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida qator bosqichli valyuta siyosatini amalga oshirdi. 2017-yildan so'ng amalga oshirilgan valyuta liberallasuvi natijasida so'mning kursi bozor mexanizmlari asosida shakllana boshladi. Shu sababli, so'nggi yillarda valyuta kursidagi o'zgarishlar yuqorida tilga olingan omillar ta'sirida kuchli sezilmoqda. Ayniqsa, inflyatsiya darajasining pasayishi, valuta zaxiralarining o'sishi, eksport hajmining ortishi va moliyaviy sektorning barqarorlashuvi so'm kursining nisbiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda (CBU, 2023).

O'zbekiston iqtisodiyotida valyuta kursiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni quyidagi yetti guruhga ajratish mumkin:

1. Ichki iqtisodiy omillar
2. Tashqi savdo balans
3. Davlat qarzi va budget taqchilligi
4. Iqtisodiy o'sish sur'ati
5. Ichki moliyaviy va institutsional omillar
6. Tashqi iqtisodiy omillar
7. Geosiyosiy va global omillar
8. Psixologik va ishonch omillari

So'mning AQSh dollari, yevro va Rossiya rubli kabi asosiy valyutalarga nisbatan almashinuv kursi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2017-yildan keyingi erkin konvertatsiyaga o'tish davrida kursda bosqichma-bosqich pasayish kuzatildi. Masalan, 2017-yilda 1 AQSh dollari 4210 so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 11 500–12 000 so'm oralig'ida bo'lgan (CBU, 2023). Kursning bunday o'zgaruvchanligi eksport qiluvchi korxonalar uchun daromadlar o'sishiga olib kelgan bo'lsa, importga bog'liq sektorlar uchun xarajatlarning oshishiga sabab bo'lmoqda.

Jahon bankining 2023-yilgi "Uzbekistan Economic Update" hisobotida qayd etilishicha, valyuta kursining erkinligi to'lov balansidagi manfiy saldo va tashqi savdoga soddalashtirilgan kirishni ta'minladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy valyutaning real qiymatini bozor mexanizmlariga yaqinlashtirdi.

Valyuta kursining beqarorligi yoki o'zgarishi birinchi navbatda eksport va importga ta'sir qiladi. Kursning pasayishi (devalvatsiya) eksport qiluvchilar uchun foydali, chunki milliy mahsulotning xorijda raqobatbardoshligi oshadi. Shu bilan

birga, import qilinadigan mahsulotlar qimmatlashadi, bu esa inflatsiyaviy bosimni kuchaytiradi.

Energiya, farmatsevtika, avtomobil, oziq-ovqat kabi importga bog'liq tarmoqlar valyuta kursining har qanday salbiy tebranishiga sezgir bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlari oshishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, valyuta kursining yuqori o'zgaruvchanligi chet ellik investorlar uchun valyuta xatarlari xavfini oshirib, sarmoya jalb etish imkoniyatlarini cheklaydi.

Markaziy bankning intervensiya siyosati, monetar barqarorlikni saqlab qolish strategiyasi va pul-kredit vositalari orqali amalga oshirilayotgan tartibga solish choralari valyuta kursining iqtisodiy sektorlarga salbiy ta'sirini yumshatishga xizmat qiladi (IMF, 2018).

Valyuta kursining shakllanishi va barqarorligi ko'plab ichki va tashqi iqtisodiy omillar bilan belgilanadi. So'mning kursi O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari, makroiqtisodiy siyosatining aniqligi va xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuvi darajasiga bevosita bog'liq. Valyuta kursining barqarorligi esa mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlari – savdo, ishlab chiqarish, investitsiya va narxlar darajasiga ta'sir qiluvchi muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2009). *International Economics: Theory and Policy*. 8th ed. Pearson Education.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Valyuta kurslari va monetar siyosat bo'yicha yillik sharh*. Toshkent. www.cbu.uz
3. Jahon banki. (2023). *Uzbekistan Economic Update: Restoring Price Stability*. The World Bank Group. www.worldbank.org
4. IMF. (2018). *Republic of Uzbekistan: Selected Issues*. IMF Country Report No. 18/233. www.imf.org